



POLITSIYACHI O'RUNNING NISHONI

O.HENRY HIKOYASI

Qarshi xalqaro universiteti "Filologiya va tillarni o'qitish" kafedrasi

talabasi Doniyorova Nozima tarjimasi

Ilmiy rahbar: Rahmonova.M

Erkaklar va ayollar bir birini ilk ko'rishda birdan sevib qolishlari mumkinligini inkor etib bo'lmaydi. Qiz hali uni ish kostyumida ko'rmasdan yoki yigit uni sochini sochini o'rab yurgan, pardozsiz holatda ko'rmasdan turib muhabbatni bir qarashdayoq his qilish xavfli jarayon. Ammo hayotda shundaylari ham bo'lib turadi. Bu hikoyaga ham ana shunday tasodifiy uchrashuv mavzu bo'lib xizmat qiladi. Biroq, Tangriga ming qatla shukrki, bu ishq-muhabbat mojarosi ancha muhimroq va hayotiyroq bo'lgan boshqa mavzularni - ichkilikbozlik, politsiyachilar, poyga otlari va amaldorlarning dabdabali unvonlarini aslo soyada qoldirmaydi. Urush yillarida o'zini "Muloyim chavandozlar" deb atovchi bir otryad tarixdan va bir-ikki pistirmalardan joy oldi. Bu chavandozlar G'arbdagi qo'pol, ammo zodagon yigitlardan hamda Sharqdagi aslzodalarning "yovvoyi" farzandlaridan tashkil topgan edi. Egnilaridagi sarg'ish-qo'ng'ir harbiy libosda ularni bir-biridan ajratib bo'lmas, shu sabab ular tezda qalin do'st va sadoqatli safdoshlarga aylanishdi.

Kamtarona o'n millionlik boyligiga qaramay Nyu-Yorkdagi ilk gollandlar sulolasidan ekanligi bilan ko'ngli to'q bo'lgan Elsvort Remsen "Muloyim chavandozlar" gulxani atrofida konserva go'shtini huzur qilib yerdi. Uning uchun urush shunchaki bir qiziq tomosha edi, hatto chavgon o'yiniyu, tansiq baliq taomlarini sog'inishga ham vaqti yo'q edi. Otryad safida O'run ismli qaddi-qomati kelishgan, muomalasi muloyim, o'zini tutib olgan yigit bor edi. Ular mashhur tepalik jangi paytida yonma-yon ot choptirishdi. O'sha hujumni avval ispanlar, keyin esa siyosatchilar qizg'in bahsga sabab qilgan edi. Urush tugagach, Remsen yana o'zining chavgon o'yinlari va dengiz baliqlariga qaytdi. Kunlarning birida o'sha kelishgan va



vazmin yigit uni klubda izlab keldi. Remsen va O'Run uzoq ayriliqdan keyin uchrashgan eski qadrdonlardek darrov bir-birlarini quchoqlab, hazil-huzul bn so'kishib ketishdi. O'Running kiyimi eskirgan, omadi yurishmayotgandek edi, ammo u o'zini bundan mutlaqo bezovta emasdek tutardi. Biroq bu xotirjamlik faqat tashqi tomondan ekan.

- Menga ish topib ber, Remsen dedi u. So'nggi tangamni hozirgina sartaroshga berdim.

- Muammo yo'q dedi Remsen. - Shaxarda bank va do'konlari bor tanishlarim ko'p. Qaysi senga ma'qul keladi?

- Ha dedi O'run qiziqish bilan. - Bugun Markaziy xiyobonda aylanib yurib, otliq politsiyachilarni ko'rib qoldim. Mana shu menbop ish ekan. Boz ustiga, qo'limdan keladigani ham shu: ot minishni bilaman, toza havo ham jonu dilim. Shu ishni hal qilib bera olasanmi?

Remsen bunga ishonchi komil edi. Ko'p o'tmay u ishni bitirdi. Endi otliq politsiyachilarga befarq bo'lmaganlar bog' yo'laklarida jiyron otini o'ynatib, vazifasini bajarayotgan o'sha xushmuomala yigitni ko'rishlari mumkin edi.

Endi esa charm zanjirli soat taqib yuradigan keksa janoblarni va keksa xonimlarni... yo'q, to'xta! Hatto buvilar ham hamon o'sha boqiy Romeo haqida afsonadan hayajonlanishadi. Demak, "bir ko'rishda muhabbat" mavzusiga to'xtalishning ayni vaqti. Bu voqea Remsen klubdan chiqib, Beshinchi avenyuga burilayotganida sodir bo'ldi. Ko'chadagi tirbandlik tufayli mashinalar sekin harakatlanib borar edi. Bir avtomobilda haydovchi, yonida oppoq yon soqolli, shotlandcha naqshli qalpoq kiygan keksaroq janob o'tirardi. Bunday shlyapani mashinada faqat juda yuqori martabali shaxslargina kiyishi mumkin edi. Ammo ular muhim emasdi. Keksa janobning yonida anor gulidan go'zalroq, shom qorong'usida oleyandr daraxtlari orasidan ko'ringan ilk, yangi oydanda jozibaliroq yosh xonim o'tirardi. Remsen uni ko'rdi-yu, o'z taqdirini angladi. U o'zini o'sha mashina g'ildiraklari ostiga tashlashga ham tayyor edi, biroq avtomobilda yuradiganlarning e'tiborini jalb qilishning eng yomon yo'li shu ekanini bilardi. Mashina sekin o'tib



ketdi va Remsenning yuragini ham o'zi bilan birga olib ketdi. Bu millionlab odamlar yashaydigan shahar, uzoqdan anor guliga o'xshaydigan ayollar ko'p, ammo Remsen uni yana ko'rishga umid qilardi. Chunki har bir oshiq o'z sevgisining ilohiy qudrati borligiga ishonadi. Remsenning baxtiga ko'nglini chalg'itish uchun shahar bo'ylab "Muloyim chavandozlar" ning uchrashuvi tashkil etildi. Ular uncha ko'p emas edi, bor-yo'g'i yigirmatacha kishi. Ichimliklar, taomlar bo'ldi, nutqlar ijro qilindi, ispanlarga qarshi janglar yana bir bor yodga olindi. Tong yorishay deganda tirik qolgan "jangchilar" uy-uyiga tarqala boshlashdi. Ammo ba'zilar "jang maydoni" da qolib ketishdi. Ulardan biri kuchli ichimliklarga o'rganmagan O'Run edi. Uning oyoqlari politsiya departamenti oldidagi majburiyatlarini bajarishdan bosh tortayotgan edi.

- Men judayam mastman, Remsen dedi O'run do'stiga.

- Nega bu mehmonxonalarni katerina charxpalagiday aylanadigan qilib qurishadi-ya? Hozir nishonimni tortib olishadi, ishdan haydalishim aniq. Fikrlashim joyida, gapirolaman, lekin oyoqlarim s-s-s-so'zimga kirmayapdi. Uch soatdan keyin xizmatga chiqishim kerak. Hammasi tugadi Remsen, hammasi tamom dedim.

- Menga qara, dedi hamon jilmayib turgan Remsen o'z yuziga ishora qilib. - Bu yerda kimni ko'ryapsan?

- Yaxshi yigitni, dedi O'run chayqalib. - Qadrdonim Remsenni.

- Adashding, dedi Remsen. - Sen hozir otliq politsiyachi O'runni ko'ryapsan. Yuzingga qara... to'xta, oynasiz qaray olmaysan-ku, yaxshisi mening yuzimga qara va o'zingnikini tasavvur qil. Biz bir-birimizga naqadar o'xshaymiz? Xuddi bir restoranning ikki xil tushlik menyusidek. Sening nishoning bilan sening o'rningda xiyobonda xizmat qilaman. Nishoning ham, sha'ning ham menga ishonib topshiriladi. Bu ispanlarni yenganimizdan beri boshimdan o'tgan eng quvnoq sarguzasht bo'ladi.

Belgilangan vaqtda otliq politsiyachi O'Running "nusxasi" parkga chiqdi. Formadagi bir-biriga o'xshamaydigan odamlar ham o'xshash bo'lib ko'rinadi; bir-biriga ozgina o'xshaydiganlar esa egizaklardek bo'lib qoladi. Shunday qilib, Remsen



bog' yo'laklari bo'ylab ot choptirib, o'n millionlab boyligi bor odamlar kamdan-kam his qiladigan zavqni tuya boshladi. Erta tongda bog' yo'lagi bo'ylab ikki asov baytal qo'shilgan ekipaj (viktoriya) paydo bo'ldi. Bu hodisada qandaydir g'ayritabiiy jihat bor edi, chunki odatda tong saharda xiyobonda sog'lom, kambag'al va dono bo'lishni istovchi ahamiyatsiz kishilardan o'zga hech kim deyarli ko'rinmasdi. Ekipajda oppoq yon soqolli, shotland qalpoq kiygan janob va Remsenning yuragini o'g'irlagan anor guli va yangi oydek xonim o'tirar edi. Ular yonma-yon kelgan lahzada qizning ko'zlari yigitnikiga to'qnashdi. Remsen oshiqning qo'rqqoq qalbi bilan qasamyod qilishi mumkinki, qizning yuzlari nimpushti rangga kirdi. Remsen yigirma qadamcha o'tgach, birdan otlarning pishqirgan va qochgan ovozi eshitib, otining jilovini burdi. Baytallar hurkib ketgan edi. Remsen o'z jiyronini kamon o'qidek ekipaj ortidan haydadi. Endi politsiyachi O'Run rolini haqiqatga aylantirish vaqti kelgandi. Jiyron ot bor mahoratini ko'rsatib, otlarga yetib oldi. Go'yo u Remsenga: "Hoy, landavur, sen ham biror nima qilasanmi? O'Run emasligingni bilaman, lekin o'ngga engashib jilovni tutsang bo'lardi... ha, barakalla! Hatto O'Run ham sendan ortiq qilolmasdi!" deyayotgandek edi. Remsenning baquvvat mushaklari otlarni to'xtatdi. Haydovchi sakrab tushib, otlarning jilovini ushladi. Jiyron ot esa yangi chavandozidan mamnun bo'lib, mag'lub bo'lgan otlarga pishqirib maqtanardi. Remsen shotlandcha qalpoq kiygan keksa janobning tinmay nimalardir deyayotganini xira angladi. Ammo u ayni damda Avliyo Piritni o'zining temir ustunidan ham tushira oladigan darajadagi binafsharang ko'zlar sehrini butun vujudi bilan his qilib turardi. Shuningdek, xonimning tabassumi va uning bir oz qo'rquv aralash boqishlari ham uning diqqat markazida edi. Haqiqiy oshiqning qo'rqqoq qalbi bilan u bu nigohlarning ma'nosini hali to'liq anglab yetolmasdi. Ular Remsendan ismini so'rab, ko'rsatgan jasorati uchun aslzodalarga xos tarzda minnatdorchilik bildirishardi. Qalpoqli janob esa ayniqsa tinmas, nimanidir uqtirishga urinardi. Biroq asil so'zsiz iltijo xonimning ko'zlarida namoyon edi.

Remsen bir zum faxrlanib ketdi, chunki u aytishi mumkin bo'lgan ism va boylik har qanday yuqori davralarda hurmatga loyiq edi.



U og‘iz ochdiyu, lekin yana yopdi. U kim edi? Otlq politsiyachi O’Run. Do‘stining nishoni va sharafiga hozir uning qo‘lida edi. Agar hozir o‘n million egasi Remsen qizni qutqarganini aytsa, u holda politsiyachi O’Run qayerda qoladi? U xizmat joyini tark etgan, sharmanda bo‘lgan va ishdan haydalgan hisoblanardi. Sevgi kelgan edi, ammo ungacha bo‘lgan muhimroq narsa ya'ni jang maydonidagi do‘stlik va erkaklarning bir-birini qo‘llashi bor edi. Remsen shlyapasini salgina ko‘tarib, politsiyachilarga xos ohangda dedi:

- Arzimaydi. Biz politsiyachilarga shu ish uchun haq to‘lashadi. Bu bizning burchimiz.

Va u o‘z majburiyatiga la’natlar ayta-ayta uzoqlashdi, biroq boshqacha yo‘l tuta olmasligini ich-ichidan his qilib borardi.

Kun oxirida Remsen otni otxonaga bog‘lab, O’Running xonasiga bordi. Politsiyachi endi o'ziga kelgan, vazmin yigit bo‘lib, deraza yonida sigaret chekib o‘tirardi.

- Sen ham, sening butun politsiya tiziming ham, otlaring-u nishonlaring ham, ikki qadah ichib o‘zini yo‘qotadigan odamlaring ham jahannamga ravona bo'lsin, dedi Remsen alam bilan.

- Qadrdonim Remsen, dedi u xushmuomalalik bilan. - Men hammasidan xabardorman. Ular ikki soat oldin meni shu yerdan topib olishdi. Bilasanmi, uyda biroz janjal bo‘lgandi, men ularga ko‘rsatib qo‘yish uchun qochib ketgandim. Men senga otam Ardsli grafi ekanini aytmaganmidim? Bog‘da ularga duch kelganing juda qiziq bo‘libdi. Agar o'sha otimga shikast yetkazgan bo‘lsang, seni aslo kechirmayman. Men uni sotib olib, o‘zinga qaytarmoqchiman. Ha, aytgancha, singlim Anjela sen bilan bugun kechqurun mehmonxonada uchrashishni juda-juda xohlayabdi. Remsen, nishonimni yo‘qotmadingmi? Iste’foga chiqqanimda, uni boshqarmaga topshirishim kerak.